

BOYSUN KASHTACHILIGINING TARIXIY VA ZAMONAVIY RIVOJLANISHI

Umarov Ikromjon Ibragimovich,

Termiz Davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasasi
dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori



Annotatsiya:

O'zbek kashtachiligi xalq amaliy san'atining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u milliy madaniyat, estetik qarashlar hamda xalqning asrlar davomida shakllangan badiiy tafakkurini o'zida mujassam etadi. Ushbu san'at turi nafaqat bezak vazifasini bajaradi, balki o'zbek xalqining urf-odatlari, marosimlari va ijtimoiy hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ma'naviy meros hisoblanadi. Kashtalarda aks etgan naqsh va ranglar orqali xalqning dunyoqarashi, tabiatga munosabati hamda ramziy tasavvurlari ifodalanadi. Mazkur maqolada kashtachilikning hududiy maktablari, xususan, Boysunda shakllangan kashtachilik an'analari, uning o'ziga xos uslublari va badiiy xususiyatlari, kashtachilikda qo'llaniladigan naqshlarning semantik ma'nolari o'rganiladi.

Kalit so'zlar:

kashtachilik, milliy san'at, so'zana, naqsh, an'ana, hunarmandchilik, madaniyat.



1-rasm. N. Jo'rayeva Yaponiyalik mehmonlarga "boysuncha" do'ppi tikishni o'rgatmoqda.

ИСТОРИЧЕСКОЕ И СОВРЕМЕННОЕ РАЗВИТИЕ БАЙСУНСКОЙ ВЫШИВКИ

Аннотация:

Узбекская вышивка является одним из важнейших направлений народного прикладного искусства, в котором воплощены национальная культура, эстетические взгляды и художественное мышление народа, сформировавшееся на протяжении веков. Этот вид искусства выполняет не только декоративную функцию, но и представляет собой духовное наследие, тесно связанное с обычаями, традициями и социальной жизнью узбекского народа. Через орнаменты и цветовые решения, отражённые в вышивке, передаются мировоззрение народа, его отношение к природе и символические представления. В данной статье рассматриваются региональные школы вышивки, в частности, традиции вышивки, развившиеся в Бойсуне, их уникальные стили и художественные особенности, а также смысловое значение узоров, используемых в вышивке.

Ключевые слова:

вышивка, национальное искусство, сюжаны, орнамент, традиция, ремесленничество, культура.

HISTORICAL AND MODERN DEVELOPMENT OF BOYSUN EMBROIDERY

Abstract:

Uzbek embroidery is one of the most important branches of folk decorative art,

embodying national culture, aesthetic views, and the artistic thinking of the people formed over centuries. This form of art serves not only a decorative function but also represents a spiritual heritage closely connected with the customs, traditions, and social life of the Uzbek people. Through the patterns and color compositions reflected in embroidery, the worldview of the people, their relationship with nature, and symbolic perceptions are expressed. This article examines regional schools of embroidery, in particular the embroidery traditions that developed in Boysun, their unique styles and artistic features, as well as the semantic meaning of the patterns used in embroidery.

Keywords:

embroidery, national art, suzani, ornament, tradition, craftsmanship, culture.

Kirish.

O'zbek kashtachiligi asrlar davomida shakllangan boy madaniy merosning ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu san'at turi xalqning tarixiy xotirasi, estetik didi va badiiy tafakkurini o'zida mujassam etib, avloddan-avlodga uzluksiz ravishda o'tib kelmoqda. Kashtachilik nafaqat estetik bezak vositasi sifatida, balki xalqning dunyoqarashi, urf-odatlarini, marosimlari va ijtimoiy hayotini aks ettiruvchi muhim madaniy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, to'y marosimlari, oilaviy an'analar va maishiy turmushda kashtachilik buyumlarining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi.

Har bir hududning o'ziga xos naqshlari, rang tanlovi va tikish uslublari mavjud bo'lib, ular orqali nafaqat estetik qarashlar, balki muayyan tarixiy davrlarning ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini ham kuzatish mumkin. Masalan, ayrim hududlarda yirik va yorqin naqshlar ustunlik qilsa, boshqalarida nozik, mayin va murakkab kompozitsiyalar ko'proq uchraydi. Bu xilma-xillik o'zbek kashtachiligining boyligi va rang-barangligini namoyon etadi.

Shuningdek, kashtachilikda qo'llaniladigan naqshlar va bezak elementlari chuqur ramziy ma'noga ega bo'lib, ular orqali xalqning tabiatga munosabati, hayot haqidagi tasavvurlari, ezgulik va baraka haqidagi qarashlari ifodalanadi. Gul, quyosh, daraxt va geometrik shakllar kabi elementlar nafaqat bezak sifatida, balki muayyan ma'no va mazmuni anglatuvchi belgilar sifatida ishlatiladi.

Bugungi kunda o'zbek kashtachiligi an'anaviy shakllarini saqlagan holda zamonaviy san'at va dizayn bilan uyg'unlashib bormoqda. Yangi materiallar, innovatsion

yondashuvlar va bozor talablariga moslashish jarayoni ushbu san'at turining yanada rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, kashtachilik milliy o'zlikni anglash, madaniy merosni asrab-avaylash va uni kelajak avlodlarga yetkazishda muhim omil bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar tahlili.

Kashtachilik bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ushbu san'at turining qadimiy ildizlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Tadqiqotchilar tomonidan kashtachilik naqshlarining ramziy ma'nolari, texnikasi va hududiy xususiyatlari o'rganilgan. O'zbekiston kashtachiligiga bo'lgan qiziqish sovet davridayoq boshlangan edi. Ulardan O.A.Suxareva [1,2], K.Tursunaliyev [3], L.I.Rempel [4] va boshqa tadqiqotchilar o'z asarlarida o'zbek kashtachiligining tarixi, kashtalarning madaniy merosimizda tutgan o'rni va ahamiyati haqida qimmatli ma'lumotlar keltiradilar.

Mustaqillik yillariga kelib kashtachilikka bo'lgan qiziqish keskin kuchaydi. Bu borada S.Bulatov [5], S.Davlatova [6], N.Sodiqova [7], A.Xakimov [8], E.Gul [9] kabi tadqiqotchilarning asarlari muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, kashtachilik bo'yicha bir qator dissertatsiyalar himoya qilindi. Mazkur tadqiqotlar sirasiga K. D. Jumayev [10], Z.X. Nasirova [11], Sh. K. Abdullayeva [12], N.A. Abdullayeva [13] singari olimlarning ishlarini kiritish mumkin. Mazkur tadqiqotlarda an'anaviy o'zbek kashtachiligining bugungi ahvoli, sohada yuz bergan transformatsion jarayonlar, kashtachilikdagi innovatsiyalar tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda tarixiy-tahliliy va qiyosiy metodlardan foydalanildi. Ilmiy manbalar, muzey materiallari va amaliy san'at namunalarini o'rganish asosida kashtachilikning rivojlanish bosqichlari tahlil qilindi. Shuningdek, zamonaviy hunarmandlar faoliyati ham kuza-tildi.

Tahlil va natija.

Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek kashtachiligi turli davrlarda rivojlanib, har bir davrda yangi elementlar bilan boyib borgan. Zamonaviy davrda esa kashtachilik an'anaviy shakllarini saqlagan holda yangi dizayn va texnologiyalar bilan uyg'unlashmoqda. Natijada, ushbu san'at turi nafaqat madaniy meros, balki iqtisodiy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi kunda an'anaviy kashtachilik Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida keng tarqalgan soha hisoblanadi. Dala tadqiqotlarining ko'rsatishicha, Surxondaryo viloyatida kashtachilik san'ati yettita, ya'ni Boysun, Xatak (Ko'hitang), Termiz, Muzrabot-Sherobod, Jarqo'rg'on, Laqay (Qumqo'rg'on), Sariosiyo (Hisor) maktablariga bo'lingan holda rivojlanib kelmoqda. Har bir maktab o'ziga xos uslub, ranglar uyg'unligi va naqshlari bilan ajralib turib, Surxondaryo kashtachiligining boy merosini saqlab qolish, uni yanada rivojlantirish va avlodan-avlodga yetkazishda muhim o'rin tutadi.


Ta'kidlash joizki, Boysun tumani qadimgi milliy qadriyatlarini o'zida saqlab qolgan hudud sanaladi. 2001-yilda Boysun madaniy makoni YUNESKO tomonidan jahon hamjamiyatining dastlabki 19 ta madaniy yodgorligi qatorida "Insoniyatning og'zaki va nomoddiy madaniy merosining durdonasi" sifatida tan olingan. 2008-yilda Boysun YUNESKOning "Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi" reprezentativ ro'yxatiga kiritilgan [14: 8].

Bugungi kunda Boysun tumani aholisining urf-odatlarini va milliy qadriyatlarini, shu jumladan, kashtachilikni targ'ib qilish muhim ahamiyat etadi. Bu borada hududdagi milliy liboslar tayyorlovchi hunarmandlar, ayniqsa, xotinqizlardan yetishib chiqqan ustalarning faoliyati diqqatga sazovordir. Ana shunday taniqli ustalardan Azizova Maftuna Raxmatullo qizi, Podshoyeva Malika Yo'ldoshevna, Jo'rayeva Nilufar Davronovna, Sobirova Nazokat Rashidovnani qayd qilishimiz mumkin. Quyidagi jadvalda Boysun hunarmandlari haqida qisqacha ma'lumot beriladi:

Boysun hunarmandlari haqida jadval

No	F.I.Sh	Tug'ilgan sana va joy	Yo'nalishi	Avlod	Yutuqlari
1	Azizova Maftuna Raxmatullo qizi	27.08.1993. Inkobod qishlog'i	Gazlama va gilam to'qish	5-avlod usta	«Tashabbus-2017» laureati, «Shuhrat» medali (2018), UNESCO "Sifat belgisi"
2	Podshoyeva Malika Yo'ldoshevna	25.09.1962, Tuzbozor qishlog'i	Kashtachilik	5-avlod usta	«Tashabbus» g'olibi, «Boysun bahori» (2003) g'olibi, xalqaro festivallar ishtirokchisi
3	Jo'rayeva Nilufar Davronovna	13.01.1984. Boysun	Kashtachilik	6-avlod usta	«Boysun bahori» laureati, «Tashabbus-2019» g'olibi, «Shuhrat» medali (2026),
4	Sobirova Nazokat Rashidovna	06.04.1997. Boysun	Kashtachilik, gilam va janda mahsulotlari	3-avlod	«Kelajak ovozi» g'olibi, «Atlas» festivali g'olibi, xalqaro festivallar ishtirokchisi

Boysun ustalari shogird tayyorlash an'anasi bilan mashhur bo'lib, bu jarayon hunarmandchilikning davomiyligini ta'minlaydi. Ustozlar o'z bilim va ko'nikmalarini bevosita amaliyot orqali yosh avlodga o'rgatadi. Ko'plab hunarmandlar o'nlab, hatto yuzlab shogirdlarni tarbiyalab, ularning mustaqil faoliyat boshlashiga yordam bermoqda. Natijada milliy kashtachilik, gilamchilik va to'qimachilik san'ati Boysun hududida izchil rivojlanib, avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. Quyidagi diagrammada boysunlik kashtachi ustalarning shogirdlari soni ko'rsatiladi.



Boysunlik kashtachilar milliy an'analar asosida qo'lda turli mahsulotlar tayyorlaydilar. Ish jarayonida tabiiy matolar va an'anaviy naqshlardan foydalanilib, har bir buyumda hududga xos uslub aks etadi. Ustalar nafaqat mahsulot ishlab chiqaradi, balki xalqaro va mahalliy festivallarda faol ishtirok etib, Boysun hunarmandchiligining nufuzini oshirib kelmoqdalar.

2017-yilda tashkil etilgan "Dream's shahrinaz" oilaviy korxonasi Jo'rayeva Nilufar Davronovna direktorlik qilib kelmoqda. 2024-yilda korxonada 150 nafar xotin-qiz ish bilan ta'minlangan. Bu yerda milliy va zamonaviy uslubdagi kashtali kiyimlar, janda, beqasam, atlas va adras matolaridan choponlar, kostyumlar, kashtali buyumlar: yostiq jildlar, choyshablar, yopinchiqlar ishlab chiqariladi. Uning tovarlari AQSh, Italiya, Gretsiya, Turkiya singari davlatlarga sotiladi. Direktorning o'zi Boysundan

turib Yaponiyadagi 60 yoshdan oshgan professorlarga dars (ba'zan videodars) o'tadi (**1-rasm**). Qilgan xizmatlari inobatga olinib, 2026-yil 3-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga asosan "Shuhrat" ordeni bilan mukofotlangan.

Jo'rayeva Nilufar ikki marta dunyodagi eng ulkan so'zana yaratib shuhrat qozongan. Birinchisi, uzunligi 25 metr, og'irligi 60 kg, eni 5 metr bo'lgan ulkan so'zana hisoblanadi. Uni tayyorlash da Jo'rayeva Nilufarning onasi Malika Podshoyeva, ammasi Sanobar Oripova, barchasi bo'lib 26 kishi qatnashgan. Uning kashtalarini Sanobar Oripovaning onasi Zaynab O'rinova chizib bergan. Ish jarayoni 6 oy davom etgan va 2019 yilning 17-mart kuni Termiz o'tchoparida bo'lib o'tgan Navro'z tantanalarida namoyish etilgan [15: 59]. Ushbu ulkan so'zananing narxi 78 mln so'm etib baholandi.



2024-yilda Nilufar Jo'rayeva shaxsiy rekordini yangilashga muvaffaq bo'ldi. "Yangi O'zbekiston" deb ataluvchi ikkinchi so'zaning uzunligi 31,5 metr, eni 5 metr, jami 161 kvadrat metrni tashkil etdi. Uning ichida 6 ta katta va 18 ta turli hajmdagi kichik oy, 8 ta gul tushirildi (2-rasm). So'zaning bozor narxi 217 mln so'm etib belgilandi.

"Yangi O'zbekiston" so'zanasi

Boysuncha kashtalarning asosiy xususiyati — ularning rang-barangligi, murakkab naqshlari va tabiiy ilhom manbalaridan olingan tasvirlaridir. Kashtalarda ko'pincha gul, barg, quyosh, yulduz va turli geometrik shakllar uchraydi. Har bir naqsh o'ziga xos ma'noga ega bo'lib, masalan, gullar go'zallik va hayotiylikni, quyosh esa baraka va nur timsolini ifodalaydi.

Milliy kiyimlarda, xususan, ayollar liboslarida — ko'ylak, lozim, nimcha va ro'mollarda Boysuncha kashtalar keng qo'llaniladi. Ayniqsa, kelin-kuyov kiyimlarida kashtalar alohida ahamiyat kasb etib, ular baxt-saodat, farovonlik va himoya ramzi sifatida tikiladi. Har bir kiyimga tikilgan kashta o'sha oila yoki hududning o'ziga xos uslubini ko'rsatadi.

Boysuncha kashtachilikda qo'llaniladigan texnikalar ham rang-barangdir. Zardo'zlik, iroqi, bosma va yo'rma uslublari orqali yaratilgan naqshlar o'zining nafisligi bilan ajralib turadi. Hunarmand ayollar kashtalarni qo'lda, katta sabr-toqat va mahorat bilan tikadilar. Har bir tikuv ortida uzoq yillik tajriba va avlodan-avlodga o'tib kelayotgan bilim mujassam.

Bugungi kunda boysuncha kashtalar nafaqat milliy kiyimlarda, balki zamonaviy dizaynda ham keng qo'llanilmoqda. Ular liboslar, sumkalar, interyer bezaklari va suvenir mahsulotlarda ishlatilib, milliy an'analarni zamon bilan

uyg'unlashtirishga xizmat qilmoqda. Bu esa o'z navbatida, yosh avlodni milliy merosga bo'lgan qiziqishini oshiradi (3-4-5 rasmlar).

Shuningdek, "Boysun bahori" kabi tadbirlar orqali Boysun hududining boy madaniyati, jumladan kashtachilik san'ati keng targ'ib etilmoqda. Ushbu festival xalq hunarmandchiligi namunalarini namoyish etish, ularni asrab-avaylash va kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyatga ega.

Suratlar Nilufar Jo'rayevaning shaxsiy fotoarxividan olindi.

Shu bilan birga, kashtachi ustalar o'z ish faoliyatida muayyan qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Birinchidan, ustalarning ijara binolarda ishlashi turistlarni jalb etishga imkon bermaydi. Bunda imkoniyatga ega oluvchilar uchun korxonaning aniq manzilini topish qiyin kechmoqda. Ikkinchidan, ishlab chiqarilgan tovarlarni sotish uchun bozorning yo'qligi. Uchinchidan, xom ashyoning chetdan olib kelinishi. Ya'ni Boysun kashtasi uchun zarur bo'lgan bo'z Toshkent va Qo'qondan olib kelinadi. Bu esa mahsulot tannarxining oshishiga olib kelmoqda.

Muammoni hal qilish uchun birinchi o'rinda Boysundagi Bibishirin mahallasida joylashgan Turizm majmuasida "Etnoshaharcha" qurish tavsiya etiladi. Qulaylik tomoni shundaki, majmua Boysunga kiraverishda, yo'lning o'ng tomonida joylashgan bo'lib, uning yaqinida Bibishirin ziyoratgohi mavjud. Shuningdek, har yili "Boysun bahori" festivalining o'tkazilishi etnoshaharchaning kelajagini ta'minlab, Boysunga sayyohlar oqimining ko'payishiga xizmat qiladi. Qolaversa, etnoshaharchada hunarmandchilik ishlab chiqarishi va tayyorlangan mahsulotlarni sotish bozorini yo'lga qo'yish mumkin bo'ladi.

Ikkinchidan, Boysunning o'zida bo'z va matolar uchun bo'yoq tayyorlashni yo'lga qo'yish. Uni amalga oshirish uchun tadbirkorlarga uzoq muddatli imtiyozli kreditlar berish, soliq imtiyozlarini taqdim etish maqsadga muvofiq. Bo'z va janda tayyorlovchi ustalarni yetishtirish maqsadida Boysun tumanidagi 1-son kasb-hunar maktabida maxsus kurs ochish va unga taniqli ustalarni taklif etish lozim.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, Boysun kashtachiligi milliy madaniyatimizning muhim tarkibiy qismi sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda va u nafaqat o'tmish merosi, balki bugungi va kelajak avlodlar uchun bebaho ma'naviy boylik hisoblanadi. Uni yanada rivojlantirish va keng targ'ib etish uchun bir qator muhim chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Avvalo, yosh avlodga kashtachilik sirlarini o'rgatish tizimini kuchaytirish lozim. Buning uchun maktab va oliy ta'lim muassasalarida amaliy san'atga oid maxsus kurslar, to'garaklar va mahorat darslarini tashkil etish katta samara beradi. Shu orqali yoshlar nafaqat kasb-hunar egallaydi, balki milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalanadi.

Bundan tashqari, hunarmandlarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash ham muhim ahamiyatga ega. Ular uchun grantlar, imtiyozli kreditlar, ko'rgazma va yarmarkalarda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish orqali kashtachilikni rivojlantirish mumkin. Ayniqsa, hunarmand ayollar faoliyatini rag'batlantirish ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, zamonaviy dizayn bilan integratsiyani rivojlantirish orqali kashtachilik san'atini yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Dizaynerlar bilan hamkorlikda an'anaviy naqshlarni zamonaviy liboslar, aksessuarlar va interyer buyumlarida qo'llash orqali ushbu san'at turining jozibadorligini oshirish va uni keng auditoriyaga yetkazish mumkin. Bu esa milliy merosning zamon bilan uyg'un holda yashashini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Сухарева О.А. К истории развития самаркандской декоративной вышивки. — В кн.: Литература и искусство Узбекистана, кн. 6. Ташкент, 1937, с. 119-134.
2. Сухарева О.А. Орнамент декоративных вышивок Самарканда и его связь с народными представлениями и верованиями (вторая половина XIX — начало XX в.) — СЭ, 1983, № 6, с. 67-79.
3. Каталог вышивок Узбекистана XIX-XX вв. / Сост. К. Турсуналиев. — Ташкент: Фан, 1976. — 80 с.
4. Ремпель Л.И. Далекое и близкое. Страницы жизни, быта, строительного дела, ремесла и искусства Старой Бухары. Ташкент: Изд-во литературы и искусства им. Г. Гуляма, 1982.
5. Булатов С. Ўзбек халқи амалий санъат бегаги. Каштачилик. —Тошкент, 1996. — 318 б.
6. Давлатова С. Ўзбек анъанавий хунармандчилиги тарихий жараёнлар контекстида. —Тошкент, 2018.
7. Садыкова Н. Национальная одежда узбеков Бухары и Самарканда XIX - XX вв. —Ташкент: Шарк, 2006. — 32 с.
8. Хакимов А., Гюль Э. Атлас художественных ремесел Байсуна. —Ташкент, 2006.
9. Гюль Э. Небесные и земные сады. Вышивка Узбекистана: скрытый смысл сакральных текстов. —Москва: ИД Марджани, 2013. — 208 с.
10. Джумаев К. Д. Бухарская традиционная вышивка конца XIX-начала XX века Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата искусствоведения. — Ташкент 2003. — 28 с.
11. Насирова З.Х. XX аср – XXI аср бошлари Ўзбекистон жанубий худудларининг анъанавий каштачилиги. Санъатшунослик фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация Автореферати. —Тошкент, 2010.
12. Абдуллаева Ш. К. Узбекская традиционная вышивка XIX нач. XX века: К проблеме изучения художественных особенностей региональных школ по материалам ГМИ РУз. Автореферат диссертации кандидата искусствоведения. — Ташкент, 2001. — 23 с.
13. Абдуллаева Н.А. Ўзбек каштачилигининг тарихий-этнографик хусусиятлари (Фарғона водийси материаллари асосида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. —Термиз, 2022.
14. Ўзбекистон номодий маданий мероси. ЮНЕСКО ишлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий комиссияси. —Тошкент, 2017.
15. Mamarajabov G'. A. O'zbekistonning janubiy hududlarida milliy hunarmandchilikning rivojlanishi va uning natijalari (1991-2020 yillar misolida). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. — 132 b.



3-4-5 rasmlar. Boysun kashtalarining libos va buyumlardagi jozibasini.

